



TIBBIYOTNOMA

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI NASHRI

№ 04 2023 YIL 24 APREL

KONSTITUTSIYA BIZNING KELAJAGIMIZ VA TAQDIRIMIZ



**Toshkent tibbiyot akademiyasida
"Konstitutsiya bizning kelajagimiz
va taqdirimiz, biz bunga befarq
emasmiz" shiori ostida targ'ibot
tadbiri bo'lib o'tdi.**

Prezidentimiz, avvalo, inson va uning hayoti, erkinligi, qadr-qimmat, daxlsiz huquqlari va manfaatlariga oid normalar Konstitutsiyada mustahkamlanishi lozimligini bildirdi. Shundan kelib chiqib, barpo etilayotgan Yangi O'zbekiston uchun inson qadri va xalq manfaatlariga hamma narsadan ustun bo'lishi aniq ko'rsatib berildi. Konstitutsiyaviy islohotlar jarayonida inson qadri yuksaltirish haqiqatdan davlat hokimiyati organlarining konstitutsiyaviy burchi va ustuvor vazifasi bo'lmog'i shartligini belgilash taklifi olg'a surilmoqda.

Shunday ekan bugungi hayotimizda muhim ahamiyat kasb etayotgan

qomusimiz – Konstitutsiya – biz uchun nafaqat muhim hayotiy qo'llanma, balki g'urur-iftixor, kerak bo'lsa, shu zaminda istiqomat qilayotgan, millati, tili, dinidan qat'i nazar, barcha insonlar uchun mustahkam bir himoya. Konstitutsiya – nafaqat bugungi kunning qomusi, balki u ertangi kunimiz, qurayotgan jamiyatimiz istiqbolini aniqlab beruvchi hujjat, yosh avlodni yo'lini yoritib turguvchi mayoqd.

Bayram-konsert formatida o'tkazilgan tadbirda taniqli san'atkorlar, turli soha faollari ishtirok etdi. Unda O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Rayhon G'aniyeva, estrada xonandalari – Botir Qodirov, Jahongir Poziljonov ("Bojalar" guruhi),

Ahror Usmonov va boshqalar so'zga chiqib, tadbir ishtirokchilarini 30 apreldagi referendumda faol ishtirok etishga, jamoatchilikni Konstitutsiya islohotlariga befarq bo'lmaslikka chaqirdi.

Tadbir so'ngida "Qomusim – baxtim mening" qo'shig'i yangrab barcha ishtirokchilar jo'r bo'lib kuyladi.

Targ'ibot tadbirlari respublika hududlari bo'ylab davom etmoqda.

**KELINGLAR, KELAJAGIMIZ
UCHUN BIRLASHAYLIK,
YANGI O'ZBEKISTONNING YANGI
QOMUSI UCHUN OVOZ BERAYLIK!**

TTA Matbuot xizmati



*Yangilanayotgan Konstitutsiya – chinakam xalq
konstitutsiyasi.*





SINSZYAN TIBBIYOT UNIVERSITETI O'RTASIDA O'ZARO HAMKORLIK

O'zbekiston-Xitoy texnoparki ochilish tadbiri doirasida Tashkent tibbiyot akademiyasi va Sinszyan tibbiyot universiteti o'rtasida o'zaro hamkorlik shartnomasini imzolash marosimi bo'lib o'tdi.

Mazkur muhim hujjat ikki universitet o'rtasidagi hamkorlikni har tomonlama rivojlantirish, jumladan, ilmiy loyihalar, akademik va talabalar mobilligi dasturlarini hamda qo'shma tadbirlarni amalga oshirish uchun mustahkam asos bo'ladi.

REVMATIK KASALLIKLARNI DAVOLASHNING DOLZARB MUAMMOLARI

Tashkent tibbiyot akademiyasida yana bir xalqaro anjuman o'tkazildi. 1-son fakultet va gospital terapiya, kasb patologiyasi va 1-son ichki kasalliklar propedeutikasi, 1-son travmatologiya, ortopediya va harbiy dala jarrohlik kafedralari tashabbusi bilan Rossiya Federatsiyasi, Belarusiya, Qozog'iston va Qirg'iziston Respublikalarining ilg'or olimlari hamkorligida "Revmatik kasalliklarni davolashda dolzarb muammolar" mavzusi muhokamalar maydonida bo'ldi.

Anjumanda Rossiya Federatsiyasi revmatologiyasining ilg'or mutaxassislari – akademik V.Mazurov, professorlar – A.Lita, Ye.Trofimov, D.Iskra, A.Naumov bilan TTA professorlari – D.Nabiyeva, X.Miraxmedova va M.Karimovlar revmatologiyaning dolzarb muammolariga bag'ishlangan ma'ruzalari bilan ishtirok etishdi. O'zbekistonlik olimlar va amaliy shifokorlar qatnashgan anjumanda revmatologik kasalliklarni tashxislash, davolash va profilaktikasi masalalarining innovatsion usullari tahlil etildi.

KONSTITUTSIYAVIY ISLOHOTLAR INSON SHA'NI VA QADR-QIMMATI UCHUN

Toshkent tibbiyot akademiyasida «Adolat» sotsial-demokratik partiyasi hamkorligida "Konstitutsiyaviy islohotlar inson sha'ni va qadr-qimmatini uchun" mavzusida davra suhbatini tashkil etildi.

Ta'kidlanganidek, amaldagi Konstitutsiyamiz 30 yil davomida erishgan yutuqlarimizga mustahkam kafolat va poydevor bo'ldi. Bugun O'zbekiston yangi qadamlar bilan mutlaq yangi kelajakka yuzlanayapti. Demakki, mamlakatimiz ertasi uchun yangi qonuniy asoslar zarur. Yangilanayotgan Konstitutsiyaga xuddi shunday hayotbaxsh qonunlar kiritilyapti. Uning qabul qilinishi va hayotga tatbiq etilishida har birimizdan siyosiy faollik va fuqarolik pozitsiyasi talab etiladi.

Davra suhbatida ana shular haqida so'z yuritildi. Talaba-yoshlarni qiziqtirgan barcha savollarga batafsil javob berildi.

**M.QOSIMOVA,
O'ZA muxbiri**



QOMUSIMIZ – MUHOFAZAMIZ GAROVIDIR

“Tabib-habibdir”.
Hadisi shariflardan.

Tabiblar va shifokorlar azal-azaldan xalqimiz ardog'ida, mehr-muhabbatida bo'lib kelgan. Moziyimizdagi Abulqosim az-Zahraviy, Muhammad Zakariyo ar-Roziy, Abu Ali ibn Sino, Hakim Yusufiy, Bositxon ibn Zohidxon Shoshiy kabi hozir hakimlarning nomlari imom Al-Buxoriy, imom Abu Homid G'azzoliy, Jaloliddin Rumi, Ahmad Yassaviy, Abduqodir Giloniy, Boborahim Mashrab kabi valiyulloh, sohibkaromat insonlar Amir Temur kabi jahongirlar bilan bir qatorda yodga olinishi bejiz emas.



“Tabib – tan mahramidek”, “Tabib xulosasi hukm o'rnida o'tadi” qabiladagi maqollar va o'g'itlar tabib va mediklarning xalq orasida hamma vaqti obro'si baland, so'zi e'tiborli, rutbasi yuksak, manqibi sharaflig' bo'lganligidan darakdir.

Ming taassuflar bo'lsinki, so'nggi yillarda ahli tibning omma oldida obro'yi pasaydi. Ularga nisbatan hurmatsizlik, obro'sizlantirish, shaxsiga tegish, qolaversa tajovuzkorlik hollari kuchaydi. Ommaviy axborot vositalarining ma'lumotlariga ko'ra, 2019 yilda tib ahliga tajovuzkorlik 19 hol, 2020 yilda 28 hol va nihoyat 2021 yilda 56 ta holda kuzatilgan. Ular orasida 1 nafar shifokorning pichoqlanishi, 1 nafarini urib, ko'zini chiqarishi kabi og'ir hollar ham kuzatilgan. 35 yillik oliy tibbiy ta'lim pedagogi, 80 dan ortiq kitoblar bitgan Turon xalq yozuvchisi, oliy toifali shifokor, Respublika Sog'liqni saqlash a'lochisi va qolaversa Yevropa Tabiiy fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi sifatida bunga bir qator ob'yektiv va sub'yektiv sabablar bor deb o'ylaymiz:

1. Tib oliy yurtlarida bo'lg'usi shifokorlarga muomala madaniyati va muloqot san'atidan, ularning huquq va majburiyatlaridan saboq beruvchi tibbiy deontologiya va kasb etikasidan yetarli o'quv soatlari ajratilmaganligi... Buning oqibatida aksariyat shifokorlarimiz muomala madaniyatidan, muloqot san'atidan halimlikdan yiroq, qo'rs, manman, dimog'dor, manfaatparast va takabbur bo'lib oliyoghlarni bitirib ketmoqdalar. Muhtaram ustozimiz, terapevt olim Erkin Qosimov (Alloh rahmatiga olgan bo'lsin) umrining oxirlariga qadar tibbiyot oliyoghlari tibbiy deontologiya, kasb etikasi kafedrasini ochilishi uchun kurashib kelgan edilar. Afsuski, bu qutlug' niyat hozirgacha amalga oshmay kelmoqda.

2. Ta'lim tizimidagi ayrim oqsash va kamchiliklar oqibatida bo'lg'usi shifokorlar yetarli malaka va tajriba, bilim va ko'nikmalarni egallamasdan bitirib ketmoqdalar. Bular haqli ravishda aholi noroziliklari va tajovuzlariga sabab bo'lmoqda. Anatomiyada murda preparatlaridan voz kechish, ta'limni baholashning test tizimi, yangi texnologiya atalmish bir qator o'zini oqlamaydigan “miya hujumi”, “stol o'rtasidagi qalam”, “Baliq suyagi” kabi o'yinchoqsimon usullariga o'tish ana shunday noxolis usullardan deb bilaman.

3. Aholi orasida ruhiyati nosog'lom, tajovuz va agressiyaga moyil johil qatlamlarning ko'payib borishidir. Psixotrop vositalar, giyohvandlik, kashandlik, ichki-likbozlikka ruju qo'yg'an kimsalardan ijtimoiy odobga zid faoliyatlar ko'p kuzatiladi.

4. Bo'lg'usi tib xodimlari oliyoghlarga qabul qilinishda psixologik testlardan o'tkazilishi lozim. Ya'ni uning mizoji, dunyoqarashi, insoniylik va maishiy jihatlari bo'lg'usi tib xodimi oldiga qo'yiladigan talablarga javob bera oladimi, yo'qmi? Yoki faqat ota-onasining qistovi bilan-gina tib oliyoghi ostonasiga kelmoqdami? Superkontrakt, giperkontrakt asosida meditsina oliyoghlari qabul qilinganlar o'zlarini qay jihatdan oqlamoqda? Dono xalqimizda “O'z og'rig'ingni his etish-ing – tirikligingdan, o'zgalar og'rig'ini his etish-ing – insonligingdan dalolatdir”, deyiladi. Bo'lg'usi tib xodimlari ana shunday insonlar orasidan saralab, tanlab olinishi lozim.

Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev “Meditsina – xalq va davlat tizimi orasidagi ko'prikdir” degan edi. Demak, sog'liqni saqlash tizimi, tib xodimlari ana shu ko'priq vazifasini vijdonan, sidqidildan bajarishlari lozim va lobuddir. Ana shun-

dagina davlat va xalq orasida tushunmovchiliklar, kelishmovchiliklar bo'lmaydi. Buning uchun biz, tib xodimi degan yuksak manqib va rutbaga har tomonlama mos bo'lishimiz zarur.

Bosh Qomusimizning ma'lum bandlariga tib xodimlariga nisbatan tajovuz hollarida javobgarlikni kuchaytirish kabi o'zgartishlar kiritilishi quvonarli holdir. Endi tib xodimlarining yoshi, jinsi, malakasi mutaxassisligi va millatidan qat'iy nazar ularga qilingan har qanday tajovuz jinoyat hisoblanib, tegishli tartibda jinoiy yoki ma'muriy javobgarlikka tortiladi. Mazkur islohotning mohiyatidan gapiradigan bo'lsak, shu paytga qadar tib xodimlari huquqi, ma'naviy jihatdan muhofazaga olinmagan bo'lib, jinoyat kodeksidagi tegishli moddalar yo'qligi bois istagan shaxslar uni haqoratlashi. Hatto tan jarohati yetkazishi, va tabiiyki jazolanmasdan qolishi oson edi. Bugungi kunda bularning barchasi shaxsan davlatimiz rahbari tomonidan e'tiborga olinishi albatta quvonarli holdir.

Konstitutsiyamizdagi o'zgarishlar va islohotlarning barchasi inson omiliga, turmush tarzimizni yaxshilashga, huquq va majburiyatlarimiz kafolatlanishiga qaratilgan bo'lib, referendumda faol bo'lishimizga undaydi.

Hurmatli ahli jamoa! Referendumda faol qatnashib, yangi tahrirdagi qomusimiz uchun ovoz berishga chorlaymiz.

Alijon FAQIROV,

Yevropa tabiiy fanlar akademiyasi akademigi, Xalqaro “Ekologiya i zdorovye cheloveka” ilmiy akademiyasi muxbir-a'zosi, Qutbiddin NIZOMOV, Respublika Sog'liqni saqlash a'lochisi, Turon Fanlar akademiyasi akademigi





O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vaziri stipendiantlari

SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRI STIPENDIANTLARI

Toshkent tibbiyot akademiyasining 3 nafar talabasi – O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vaziri stipendianti bo'lishdi.

2022-2023 o'quv yili uchun «O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vaziri stipendiya-si» nomzdolari tasdiqlandi. Respublika miqyosidagi 12 ta tibbiyot oliy ta'lim muassasalari bitiruvchi kurs talabalari orasidan tanlab olingan 11 g'olibning 3 nafari Toshkent tibbiyot akademiyasi talabasi ekanligi quvonarli.

Ular:

1-son davolash fakulteti talabasi Tursunbayeva Di-yora Baxtiyor qizi;

1-son davolash fakulteti talabasi Xamidova Dilafro'z Baxtiyor qizi;

Tibbiy pedagogika fakulteti talabasi Asrorxo'jayeva Irodaxon Rustamxo'ja qizi.

Talabalarimizni ushbu zafarlari bilan muborak-bod etgan holda yutuqlari bardavom bo'lishini tilab qolamiz. Ta'lim-tarbiya berayotgan ustoz-murabbiylari va komil inson sifatida kamolga yetkazayotgan ota-onalariga o'z tashakkurimizni bildiramiz!



TIBBIY TA'LIMDA KREATIVLIKNI SHAKLLANTIRISH VOSITALARI

Jamiyatimiz rivojining hozirgi bosqichi bo'lg'usi mutaxassislarining zamon talablariga mos bilim, ko'nikma va malakani egallashi barobarida, ularga tayanch va fanga doir kompetensiyalarni tarkib toptirish, axborotlar globalashuvi davrida keng tabiiy-ilmiy dunyoqarashga ega, xorijdagi hamkasblari bilan ijtimoiy hamkorlikka kirisha oladigan, kelgusi faoliyatida innovatsion va axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali Vatan va fan ravnaqiga munosib hissa qo'shadigan barkamol shaxslarni tarbiyalash vazifasini qo'ymoqda.

Amalga oshirilayotgan ta'limiy islohotlar kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollaridan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda tashkillantirilmoqda.

Ta'lim jarayonida hamkorlik pedagogikasiga asoslanish, har bir darsda mavzuga mos pedagogik texnologiyalardan foydalanish, o'quvchilarda mustaqil va ijodiy fikrlashni rivojlantirish, ularda ma'naviy-axloqiy fazilatlar, vatanparvarlik va milliy g'ururni shakllantirish, tabiatga ongli munosabatni shakllantirish masalalariga yordam beradi.

Talabalarni ijodiy rivojlantirish sharoitlari, metodlarini tanlash va darslarni loyihalashtirish pedagogdan yuqori kasbiy mahorat, ijodiy izlanish talab qiladi. Bu ijodiy izlanishlar natijasi o'laroq, biz tayyorlaydigan talabalar kelajakda respublikamiz taraqqiyotiga hissa qo'shadigan, kasbiy to'siqlar va muammolarni ijodiy fikrlash darajasida olgan bilimlariga tayangan holda hal etadigan yetuk mutaxassislar bo'lib yetishishiga zamin tayyorlaydi.

Dars samaradorligiga erishish uchun o'qitishning didaktik ta'minotini yaratish mexanizmlari muhim ahamiyatga ega. Didaktik ta'minotni yaratish mexanizmlariga kreativ yondashuvni tashkil etish o'quvchilarni tanqidiy, tahliliy, ijodiy fikrlash va aniq ma'lumotlarga asoslangan bilimlarga ega bo'lishlarini amalga oshiradi. Fanga tegishli mavzu bo'yicha talabalarning bilimi, kasbiy ko'nikma va malakalari oshadi, dars jarayonining faolligi oshishi kuzatilib, dars samarali o'tadi.

Toshkent tibbiyot akademiyasida talabalarining dars jarayonida faolligini ta'minlash, mashg'ulotlarni sa-

maradorligini oshirish uchun pedagoglar doimiy ravishda izlanishdalar. Hozirgi vaqtda fan mavzulari bo'yicha integral ma'ruzalarni tashkillashtirish yuqorida qayd etilgan vazifalarni bajarishga yordam beradi.

2022-2023 o'quv yilida Toshkent tibbiyot akademiyasining normal va patologik fiziologiya va 1-son oilaviy tibbiyotda ichki kasalliklar va klinik farmakologiya kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan 6-kurs talabalariga integrallashgan ma'ruzalar o'qildi.

1-son davolash fakulteti 605-606-guruh talabalari uchun "Aritmiya sindromi. Aritmiyalarning differensial diagnostikasi. Davolash va profilaktika. UASH taktikasi" va "Arterial gipertenziya" mavzulari bo'yicha normal va patologik fiziologiya kafedrasida dotsenti Z.Boboyeva, 1-son oilaviy tibbiyotda ichki kasalliklar kafedrasida dotsentlari – Z.Shoolimova, N.Nuritdinova, klinik farmakologiya kafedrasida dotsentlari – D.Po'latova, N.Pulatova tomonidan integral ma'ruzalar tashkillashtirildi. Bu ma'ruzalarda o'qituvchilar tomonidan qayd etilgan mavzular bo'yicha kasalliklarning etiologiya, patogenez, davolash choralarini, qo'llaniladigan dori preparatlari haqida umumlashtirilgan ma'lumot berildi. Bu ma'ruzalar talabalarda katta qiziqish uyg'otdi. Ma'ruza yakunlangach, ular mavzular bo'yicha qiziqtirgan savollari bilan faol qatnashdi.

Bu kabi ma'ruzalar talabalarni dars jarayonida faollik bilan qatnashishga undaydi. Ularning kelgusi faoliyatida zarur bo'lgan klinik fikrlash ko'nikmasini shakllantirishga katta yordam beradi.

Z. BOBOYEVA,
TTA Normal va patologik fiziologiya kafedrasida dotsenti



BADIIY ADABIYOTDA SHIFOKOR OBRAZI

O'zbek adabiyotida shifokor obrazi adabiy tanqidda kam tilga olinadigan mavzu, ammo uning madaniyat uchun ahamiyati juda katta. Kasallik va shifo motivlari so'zma-so'z va ramziy ma'noda har qanday xalqda ham folklor, ham din va har qanday san'atga singib ketadi, chunki ular hayotning o'ziga "kirib keladi". Adabiyot borliqning estetik, dunyoviy emas, balki chuqur hayotiy qiyofasini beradi.

Tibbiyot tarixining vazifasi shifokorning tashqi ko'rinishi va uning kasbiy fazilatlarini qanday o'zgarib borayotganini ko'rsatishdir. Adabiyot buni bilvosita, faqat hayotni aks ettiradigan darajada turadi: san'atkor tibbiyot sohasida nimani ko'radi va hayotning qaysi qirralari shifokorning ko'ziga ochiq.

Tabobat otasi bo'lmish Ibn Sinoning buyuk tabibliigi bilan birgalikda shoir va adib bo'lganligi buning isbotidir. Har yili tibbiyotga aloqador yangi-yangi asarlar o'rin oladi. Bu asarlar o'zbek va xorijiy badiiy asarlarning mumtoz namunalari va sohaviy badiiy publisistikasi, O.Genrining "So'nggi yoproq", "Hamdardlar" asarlari bemor uchun kasallikdan tuzalishiga ishonch qanchalik muhim ahamiyatga egaligini ko'rsatadi yoki bir xil dard hatto dushmanlarni ham do'stlarga aylantirishi mumkinligini uqtiradi. N.Qilichevning "Baliq ovi" asarida bir bolaning vafot etganida oila a'zolari, shifokor qanchalik aybdor ekanligi haqida fikr yuritishga majbur qilsa, Sh.Xolmirzayevning "Bodom qishda gulladi" asari shifokor, hamshira, palatadagilarning gap-so'zlari, oddiy hazili inson salomatligida qanchalik shifo beruvchi va buzg'unchi rol o'ynashi mumkinligidan saboq beradi.


Xususan tibbiyotda ham ma'naviyat masalalariga

alohida e'tibor qaratish lozim. Ayniqsa bu jarayon bemorlar bilan muloqotga kirishishda namoyon bo'ladi. Bemor bilan muomalaga kirishishning o'ziga yarasha shartlari bor, albatta. Shifokor bemor xastaligining taxminiy diagnozi, shaxsi, kasbi, ijtimoiy sharoiti, saviyasi, dunyoqarashi, bilim darajasini tashqi psixik belgilarini o'rganganidan so'ng o'zini ham bu muloqotga ruhan tayyorlaganidan keyingina u bilan muloqot qilish uchun ma'naviy haqqi paydo bo'ladi.

Shifokorlik inson hayotiga daxldor, o'ta mas'uliyatli va mashaqqatli, eng sharafli kasblardan. Shu bois, bugun xalq salomatligi yo'lida, fidoyilik bilan mehnat qilayotgan tibbiyot xodimlari har qancha e'zozga, e'tirofqa munosib. Mehnat faoliyatini bemorlarga shifo ulashishdek xayrli va savob bilan o'tkazadigan shifokorlar mamlakatimizda talaygina. O'z kasbiga fidoiy, olijanob shifokorlarni badiiy adabiyotda obraz sifatida talqin etadigan asarlar yaratilsa, zamonaviy shifokorlarni o'z jabhalarida inson kelajagi, hayoti uchun javlon urishlarini, pandemiya davrida ko'rsatgan mislsiz jonkuyarligi-yu matonatini badiiy talqin etadigan asarlar yaratilishi zamon bilan hamnafas bo'ladi.

D.ARIPOVA,

TTA ARM Badiiy adabiyotlar bo'limi mudiri





“TIBBIYOT VA INNOVATSIYA” XALQARO OLIMPIADADA NUFUZLI O‘RINLARNI EGALLASHDI

Toshkent tibbiyot akademiyasi talabarlari jamoasi Toshkent davlat stomatologiya institutida o‘tkazilgan “Tibbiyot va innovatsiya” nomli talabalar Xalqaro olimpiadasida qatnashib, diplomlarni qo‘lga kiritdi.

Talabalar umumjamoaa hisobida 3 ta mutlaq chempion, 3 ta II o‘rin, 3 ta III o‘rinni egallab, akademiya sharafigini munosib himoya qildi.

Eng oliy o‘rin – mutlaq chempionlar safidan – Sedenkov Aleksey Nikolayevich, Xursanova Mohinurbonu Odiljon qizi va Tulyaganova Amina Abbdusattor qizi egalladi.

II-o‘rin sovrindorlari deb Tursunboyev Muxammadorif Oybek o‘g‘li, Zikirullayev Javlonbek Davron o‘g‘li va Ismoilov Bahodir Yoqubovich topildi.

Xalqaro olimpiadaning III-o‘rinni Fozilov Ziyodillo Ibdullo o‘g‘li, Abdunabiyev Rahmatillo Nodirjon o‘g‘li va Uzoqov Jafar Erkinjon o‘g‘li egallashdi.

TANLOV G‘OLIBLARI TAQDIRLANDI

Talabalar shaharchasida 6 ta oliy ta‘lim muassasalari o‘rtasida «Talabalar teatr studiyalari», «Voleybol», «Mini futbol» va «Shaxmat» bo‘yicha o‘tkazilgan tanlov g‘oliblarini taqdirlash marosimi bo‘lib o‘tdi.

Mazkur tanlovda Akademiya talabarlari faol ishtirok etishdi. Qizg‘in tarzda kechgan musobaqalarda talabalar «Talabalar teatr studiyalar» o‘rtasidagi musobaqada 2-o‘rinni, «Mini futbol» sport turi bo‘yicha 2-o‘rin, «Shaxmat» bo‘yicha 3-o‘rinni egallashdi.

KONSTITUTSIYA – SENIKI, MENIKI, BARCHAMIZNIKI!

Mamlakatimizda inson huquqlarini himoya qilish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sanaladi. Bugungi kunda yurtimizda bu borada zamonaviy mezonlarga javob beradigan barqaror siyosiy tizim shakllanish arafasida.

Mana shunday yuksak maqsadlarga erishish va aholi farovonligini ta‘minlash borasida bugungi kunda salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.

Bugun shiddat bilan o‘zgarayotgan dunyoda ro‘y berayotgan g‘iyosiyosiy vaziyatlar, eng avvalo, mamlakatimizni kelgusida rivojlantirishga qaratilgan maqsadlarni mustahkamlash bilan birga, Bosh qomusimizda ham inson qadrini yuksaltirishga qaratilgan normalarni yanada takomillashtirib, bugungi zamon talablariga moslashtirishni taqozo etmoqda.

Toshkent tibbiyot akademiyasi akademik litseyida bugungi siyosiy jarayonlar jadallik bilan o‘quvchi-yoshlar va pedagogik jamoada qo‘llab-quvvatlanmoqda. Shu munosabat bilan “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonunining loyihasi va ahamiyati” mavzusida Jamoat havfsizligi universiteti professor-o‘qituvchilari ishtirokida tadbir o‘tkazildi.

Tadbirda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish bo‘yicha takliflarni olish, ularni ko‘rib chiqish yuzasidan amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida axborot berilib, Yangi qonun loyihasi va unda xalqimiz tominidan berilgan takliflar albatta inobatga olinganligi ta‘kidlandi.

Mavzu yuzasidan so‘zga chiqqan Jamoat xavfsizligi universiteti yuridik fanlari professori Y.Po‘latov tomonidan qisqa vaqt ichida xalq vakillari tomonidan ilgari surilgan tashabbus fuqarolarimiz va keng jamoatchilik tomonidan qizg‘in qo‘llab-quvvatlangani, o‘tgan yillar davomida jamiyatimiz va unda ilgari surilayotgan g‘oya va tashabbuslarda xalqimizning ishtiroki va ular tomonidan bildirilayotgan fikr-mulohazalarining ahamiyati har tomonlama ortganini ta‘kidlab o‘tdi. Yangi tahrirga asosan, O‘zbekiston Konstitutsiyasidagi moddalar soni hozirgi 128 tadan 155 taga, undagi normalar esa 275 tadan 434 taga oshirilmoqda.



Ma‘lumot o‘rnida aytish kerakki O‘zbekiston Respublikasining referendumi O‘zbekiston Respublikasining qonunlari va boshqa qarorlarni qabul qilish maqsadlarida jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari yuzasidan fuqarolarning umumxalq ovoz berishidir. Referendum o‘tkaziladigan kunga qadar yoki referendum kunida o‘n sakkiz yoshga to‘lgan O‘zbekiston Respublikasining har bir fuqarosi referendumda ishtirok etish huquqiga egadir.

Akademik litseyda tahsil oluvchi 8 nafar o‘quvchi 30 aprel kuni bo‘lib o‘tadigan siyosiy jarayonlarda ilk marotaba qatnashadi. Yoshlarimiz ko‘zida hayajon, bugungi referendum, Yangi Konstitutsiya ularning ertasi porloq nurafshon yo‘li debochasidir. O‘quvchi-yoshlar qalbida “Konstitutsiya – Seniki, Meniki, Barchamizniki!” shiori jarang sochmoqda. Kelajakning porloq istiqboli Qonunimiz timsolida nur taratmoqda.

Zeroki, bugun yurtimizda Konstitutsiyaga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish bo‘yicha takliflarni shakllantirish va tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirish yuzasidan keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Nigora HAKIMOVA,
Toshkent tibbiyot akademiyasi akademik litseyi yoshlar masalalari ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari



BOBUR MIRZONING KASALLIK TARIXI

Ustozi komil Abdulla Oripov “Jannatga yoʻl” dramatik dostonida:

Qodir Egam muhiblarin siylagan mahal

Shoirlarni kiritmishdir pari qavmiga.

Farishtalar til farqlamas, millat ham azal,

Ular faqat quloq tutgay koʻngil mayliga, degan edi.

Darhaqiqat, millatning, Turon zaminining shoirlari koʻp boʻlgan, ammo yuqoridagi eʼtirofga loyihlari barmoq bilan sanarli. Ana shunday soʻzdagi sehrni, sheʼrdagi hikmatni koʻrsatib berolgan, Oʻzbekiston xalq shoiri Toʻra Sulaymon bitganidek:

Soʻz durrini shodalab moʻjizalar yaratgan,

Magʻrib bilan mashriqni oʻz ogʻziga qaragan

dilbar shoirlardan bittasi, noyob qalb sohibi Zahiriddin Muhammad Boburdir.

Zamharir qishlarning adogʻida, boychechaklar bosh koʻtargan qutlugʻ davrda, yaʼni 9 fevralda millatning eng salohiyatli shoiri, yozuvchisi, tarixchisi, olimi, davlat arbobi Bobur Mirzo tavallud topgan. Bor-yoʻgʻi 47 yillik, shoir taʼbiri bilan aytganda kapalakning qanoti bir ochilib yopilgunicha boʻlgan tarixning qisqa bir davrida umr koʻrgan buyuk bobokalonimizdan roʻzi-mahshargacha odamlar hayrat bilan oʻqiydigan koʻplab gʻazallar, tarixiy asarlar qoldi. Uning siymosi hanuzgacha odamlarni hayratlantirishda davom etmoqda, koʻplab izlanuvchilar uning merosi va shaxsiyati boʻyicha ilmiy izlanishlar olib borib, dissertatsiyalar himoya qilmoqdalar. “Boburnoma”ni eng toʻgʻri yozilgan, voqea va hodisalarga eng olisona baho berilgan tarixiy asar sifatida eʼtirof etishmoqda.

Bugungi kunda milliy tarixchiligimiz shaxsan davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev tomonidan nazoratga olinganligi, “Oʻzbekiston tarixi” telekanalining ochilishi, Turon Fanlar Akademiyasi, shaxsan akademik Haydarbek Bobobekov tomonidan tariximizga oid koʻplab anjumanlar oʻtkazilib, ilmiy maqolalar chop etilishi oʻtmishimizga xolisona baho berish uchun omil boʻlib xizmat qilmoqda. Yaqinda tavallud kuni nishonlangan Mirzo Boburning “Boburnoma” asari ham “Qutadgʻu biligʻ”, “Devonu lugʻotit turk”, Narshaxiyning “Samarqand

tarixi”, “Fargʻona tarixi”, “Buxoro tarixi” kabi asarlari, Sadrididdin Ayniyning “Qullar”, “Doxunda”, “Buxoro jallodlari”, hazrat Alixontoʻra Sogʻuniyning “Turkiston qaygʻusi” tarixiy romanlari kabi oʻz zamonasini eng xolisona va mukammal yoritgan qimmatli tarixiy manba hisoblanadi.

“Boburnoma”da Mirzo Bobur oʻzining shajarasi, padari Umarshayx Mirzo, saroy hayoti, notinch kechgan bolaligi, Andijon, Toshkent, Samarqand hukmdorlari, oʻsha davrda qonli muhit, hokimiyat uchun bemisl janglar mukammal va chiroyli til bilan yoritilgan. Eng muhimi har bir muammoga xolislik va rostgoʻylik bilan yondoshilgan. Mirzo Bobur halim inson, dilbar shoir va haqqoʻy hukmdor boʻlganligi bois hatto oʻz muxolifi, hofizul Qurʻon, shoir va hukmdor Muhammad Shayboniyxonga oid maʼlumotlarni ham haqqoniy bergan, oʻrinsiz qoralamagan. Vaholanki, keyinchalik Mirkarim Osim va Pirimqul Qodirovlar buyuk Shayboniyxonni mutlaqo qoralab “Jayhun ustida bulutlar”, “Yulduzli tunlar” asarlarida koʻplab noqislik va noxolislikka yoʻl qoʻyganlar. Shuningdek, Mirzo Bobur yurtimizdan Bobotogʻ orqali dastlab Afgʻonistonga, keyin Hindistonga hijrat qilganligi, hijrat taassurotlari, Hindistonda, Panipatda kechgan qonli urushlar va Bobur sulolasi uchun ikkinchi vatanga aylanib qolgan mazkur yurt, fuqarolar hayoti haqida qimmatli maʼlumotlarni oʻzida jamlagan.

Turon Fanlar akademiyasi qoshidagi xalq tabobati boʻyicha doktorlik dissertatsiyalari himoya qilish ilmiy kengashida olim va adib Mirmahmud Mirsaydullayev Mirshohidovich

2021 yilning 28 martida “Zahiriddin Muhammad Boburning kasallik tarixini oʻrganishda xalq tabobati va zamonaviy tibbiyot asnlari” mavzuida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. Tadqiqotchi oʻn yillar mobaynida tarixiy asarlarni oʻrganish, ilmiy, madaniy meroslar bilan tanishish, zamonaviy meditsinadagi 10 mingdan ortiq xastaliklarning klinik manzaralarini va zaharlanishlarning alomatlarini ishonarli dalil va ashyolar bilan qiyoslab, roja Ibrohim Lodining onasi malika Bayda tomonidan Bobur Mirzo dasturxonchilari va oshpazlari orqali uni mishyak-margimush bilan zaharlanganligini isbot qildi. Ammo, Mirzo Boburning yonida eng iqtidorli tabib hakim Yusufiy bor edi, u oʻsha davr nuqtai nazaridan misli koʻrilmagan tibbiy ixtironi qildi. Bobur Mirzoning bilak va tirsak venasini qirqib, unga naycha-kateter oʻrnatib, kunora zaharlangan qonni soʻrib olib, har kuni 3-5 litrgacha anor suvidan ichirdi, ich surdi. Ana shu muolajalar orqali hazratning umrini qariyb toʻrt yilga uzaytira oldi. Hazrat Bobur oʻzining bitiklarida tabibidan minnatdor ekanligini bir necha joyda eʼtirof etib oʻtgan.

Kim mazkur tafsilotlar bilan qiziqsa, monografiya va doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati bilan Turon fanlar akademiyasi hamda Alisher Navoiy kutubxonasida mufassal tanishishlari mumkin.

Alijon FAQIROV,
Yevropa tabiiy fanlar akademiyasi
haqiqiy aʼzosi, Turon xalq yozuvchisi,
Qutbiddin NIZOMOV,
Sogʻliqni saqlash alʼochisi, Turon
Yozuvchilar uyushmasi haqiqiy aʼzosi



TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI QUIYIDAGI LAVOZIMLARGA TANLOV E'LVON QILADI

(2023 yil aprel)

№	Kafedra nomi	Lavozim, shtat birligi
1-son davolash fakulteti		
1.	1-son travmatologiya, ortopediya va harbiy dala xirurgiyasi	assistent – 1,0
2.	Normal va patologik fiziologiya	assistent – 1,0
2-son davolash fakulteti		
1.	Odam anatomiyasi va OXTA	katta o'qituvchi – 1,0 assistent – 1,0
2.	2-son ichki kasalliklari va endokrinologiya	assistent – 1,0
Pediatrya, stomatologiya, xalq tabobati va tibbiy pedagogika fakulteti		
1.	2-son ichki kasalliklar propedevtikasi	katta o'qituvchi – 1,0
2.	2-son fakultet va gospital xirurgiya, transplantologiya	assistent – 1,0
3.	Pedagogika, psixologiya va tillar	dotsent – 1,0
Farmatsiya, menejment, tibbiy biologiya, biotibbiyot muhandisligi va OMH fakulteti		
1.	Ijtimoiy fanlar	dotsent – 1,0 assistent – 1,0
2.	Jamoat salomatligi va menejment	assistent – 1,0
Malaka oshirish fakulteti		
1.	1-son fakultet va gospital xirurgiyasi	assistent – 1,0
2.	Bolalar kasalliklari	dotsent – 1,0 assistent – 1,0

**Hujjatlar tanlov e'lon qilingan kundan boshlab bir oy davomida Toshkent tibbiyot akademiyasining devonxona va arxiv bo'limida qabul qilinadi.
Manzil: Olmazor tumani, Farobiy ko'chasi, 2-uy.**

MUASSIS:
**TOSHKENT
TIBBIYOT
AKADEMIYASI**

MUHARRIR
**TURDIQUL
BOBOMURATOV**

TAHRIR HAYATI:
Q.Nizomov (Bosh muharrir o'rinbosari),
O.Hazratov, A.Zohidiy, N.Hakimova,
L.Abduqodirova, M.Hasanova

Gazeta Pentium-IV
kompyuterida sahifalandi va Toshkent
Tibbiyot akademiya RISOGRAFida
400 nusxada chop etildi.
Manzilimiz:
Toshkent shahri, Farobiy
ko'chasi, 2-uy
Nashr uchun ma'sul
Q.Nizomov

Gazeta Toshkent Matbuot va axborot
boshqarmasida 2007-yil 15-yanvarda
02-0049 raqam bilan ro'yxatga olingan

Mualliflar fikri tahririyat nuqati nazaridan farqlanishi
mumkin. Maqolalardagi ma'lumotlar uchun
mualliflar javobgardir
Bepul tarqatiladi